

@buxdu_uz

@buxdu1

@buxdu1

www.buxdu.uz



3/2025

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTI



3/2025

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Zikrillayev G'.N., Ro'ziyev Y.B., Safarov F.S.	Istiqlol va tilshunoslik metodologiyasi	3
Yuldasheva D.N., Hojiyeva S.H.	Zulfiya Mo'minova she'riyatida milliy-madaniy xususiyatlarning fonopoetik ifodasi	19
Qurbonova Z.A.	Function of color lexical words, their semantic meaning and translation (in the example of the concepts "white" and "black")	25
Safarova M.Z.	Buxoro toponimiyasida miqdor ifodalovchi so'z asosli etnotoponimlarning o'rni	30
Sulaymonova M.Sh.	Metaforaning jahon adabiyotida o'rganilish tarixi	35
Рузиева М.Х.	Проявление эпитета в виде многозначных прилагательных	41
Джафарова Д.И.	Вербал ва новербал алоқа муносабатларининг таржима жараёнида таржима қилиш муаммолари	46
Toshtemirova S.	Colour naming: semantics of the colour red in english	51
Tojiyeva K.N.	Koreys tilida (Janubiy Koreya) iqtisodiy-moliyaviy leksik birliklarning genetik tahlili	55
To'rayeva U.E.	Tilning madaniy normalar, qadriyatlar va an'analarni uzatishdagi roli	61
Soibova G.B.	Lingvokulturologiya tilshunoslikning bo'limi sifatida	66
Sobirova N.G'.	Qoidalarga asoslangan imlo tekshirish usullari	70
Bozorov Z.A.	“Sog'lik” konsepti asosida shakllangan maqollar tadqiqi	76
Davronova Z.B.	Modeling language activity as a scientific text tool	80
Ziyoyeva D.A.	Paradigm in linguistics: a scientific overview	85
Yusupova D.Y.	Adabiy manbalarda qimmatbaho tosh nomlari	89
Ermetova J.I., Xo'sinova Z.X.	The linguacultural exploration of metaphors and revealing their cultural values through human character expressions	93
Xamidova M.H.	Fransuz va o'zbek tillarida metonimlarning lingvomadaniy xususiyatlari	97
Usmonova U.B.	Ingliz va o'zbek tillaridagi publitsistik matnlarda nutqiy aktlarning faollashuvi	103
Usmonov A.Q.	Muloqot jarayonida kulgi uyg'otuvchi vositalar va birliklar	107
Ubaydullayeva M.O'.	Frazologik birliklarning ma'no, grammatik va funksional jihatlar	111
Asadov T.H.	Ot va sifat turkumidagi oraliq so'zlarning ayrim funksional-semantik tabiati xususida	118

Yuldasheva D.N., Asadova Sh.A.	Graduonimlar tadqiqi	122
Haydarov A.A., Barnoyeva M.A.	O'zbek va ingliz badiiy adabiyotida antonimik tuzilmalarning leksik-semantik va pragmatik xususiyatlari	127
Elchaev Z.A.	A study on the grammatical features of behavioral verbs in english and uzbek, including derivation, classification, and syntax	133
Islomova Sh.I.	Badiiy matnda qo'llangan tibbiy birliklar badiiyati	137
Ismoilova M.Q.	O'zbek va ingliz tillaridagi ijtimoiy tarmoq marketingi terminlarining semantik xususiyatlari	142
Jalolova F.N.	Milliy konseptosferalar tadqiqining lingvomadaniyatshunoslikka doir aspektlari	146
Matmurotova U.B.	Bilvosita tarjimada stilistik vositalar tahlili	151
Muxammadiyev S.B.	Comparative analysis of livestock vocabulary in uzbek and english languages	155
Nurova F.K.	O'zbek tiliga asoslangan qidiruv tizimida lingvistik ta'minotning o'rganilishi va ahamiyati	159
Ochilova S.N.	O'zbek tilining umumiy izohli lug'atlarida xulq-atvor fe'llarining statistik tavsifi	163
Omarova D.T.	Matnlarni perefranz qilish masalasining tadqiqi	168
Qarshiboyeva A.S.	Xitoy tilida muzeyga doir atamalar tahlili	174
Samandarova G.Y.	Maqollarda raqamlar timsoli (rus xalq maqollari asosida)	178
Sayfullayev X.J.	Frazeologik birlik lingvomadaniyat sifatida	184
Djuraeva G.N.	Badiiy asarlarda barqaror birikmalarning tarjima qilish usullari	190
Mansurova G.M.	Chet tillarini o'rganishda nemis yoshlari jargoni: xususiyatlari va funksiyalari (youtube video materiallari asosida)	194
Suyarova N.Y., Eshankulova Ch.N.	Metaforalarning o'zbek va ingliz tilshunosligida o'rganilishi	198
G'apporova D.I.	Media linguistics as a linguistical research object (on the example of english and uzbek studies)	202
Gafurova G.B.	Publitsistik matnlar tarjimasida pragmatik intensiyaga erishish usullari (ingliz va o'zbek gazeta materiallari misolida)	208
Hojiyeva M.G'.	O'zbek va ingliz adabiyotida taom leksikasining lingvokulturologik talqini	212

GRADUONIMLAR TADQIQI

Yuldasheva Dilorom Nigmatovna,

Buxoro davlat universiteti professori, f.f.d. (DSc)

yuldasheva21dilorom@gmail.com

ORCID ID ORSID 0000-0003-1976-5575

Asadova Shahlo Akmal qizi,

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

asadova90shakhlo@gmail.com

Annotatsiya. Tilshunoslikda muayyan lingvistik tushunchaning tadqiqiy taraqqiyoti uning kommunikativ-pragmatik funksiyasiga bog'liqligi aksiomatik xarakterga ega ekanligini rad etib bo'lmaydi. Zero, lingvistik tushunchaning leksik-semantik maydondagi o'rni qanchalik keng bo'lsa, bu uning yashovchanligini oshirishga olib keladi. O'zbek an'anaviy tilshunosligida ko'p yillar so'zlararo va nutqda ular bilan teng barobarda ishlatiladigan frazemalarda ma'noviy munosabatlar manodoshlik, shakldoshlik va zid ma'nolilikni o'rganish bilan cheklanib qoldi. Substansial tilshunoslik bu xil munosabatlar doirasini giponimik, partonimik, graduonimik munosabatlarni ajratish bilan kengaytirdi. Graduonimik munosabat lisoniy tizim birliklariga ham, nutqiy bosqich hosilalariga ham xosligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: graduonimiya, gradatsiya, frazemalarda ma'noviy munosabatlar, frazeologik graduonimiya

АНАЛИЗ ГРАДУОНИМА

Аннотация. Нельзя отрицать, что исследовательское развитие того или иного языкового понятия в лингвистике зависит от его коммуникативно-прагматической функции, имеющей аксиоматический характер. Ведь чем шире место языкового понятия в лексико-семантическом поле, тем больше его жизнеспособность. На протяжении многих лет в традиционном узбекском языкознании изучение семантических отношений между словами и словосочетаниями, употребляющимися наравне с ними в речи, ограничивалось изучением значения, формы и противоположного значения. Субстанциальная лингвистика расширила сферу таких отношений, выделив гипонимические, партонимические, градуонимические отношения. Установлено, что градуонимические отношения характерны как для единиц языковой системы, так и для производных речевого этапа.

Ключевые слова: градуонимия, градация, духовные отношения во фразеологии, фразеологическая градуонимия

ANALYSIS OF GRADUONIM

Abstract. It cannot be denied that the research development of a particular linguistic concept in linguistics depends on its communicative-pragmatic function, which has an axiomatic nature. After all, the wider the place of a linguistic concept in the lexical-semantic field, the greater its viability. For many years in traditional Uzbek linguistics, the study of semantic relationships between words and phrases used equally with them in speech was limited to the study of meaning, form and opposite meaning. Substantial linguistics has expanded the scope of such relations, highlighting hyponymic, partonymic, and graduonymic relations. It has been established that graduonymic relations are characteristic of both units of the language system and derivatives of the speech stage.

Keywords: graduonymy, gradation, spiritual relations in phraseology, phraseological graduonymy.

Kirish. Tilning leksik-semantik tizimida u yoki bu denotat nomining alohida-alohida lug'aviy birliklari yordamida ifodalanishi mazkur so'zlar ifodalab kelgan denotatlarning shu xalqning hayoti, turmush tarzi, xo'jaligi, ijtimoiy ishlab chiqarishda qanday ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi. Chunonchi, o'zbek tilining lug'at qatlamidan kivi, ananas, banan; abajur, shlyapa, sharf, delfin so'zlarining o'zbekcha ifodasini izlash befoyda.

Chunki mazkur so'zlarni ifodalab kelgan denotatlar o'zbek xalqining hayoti, madaniyati va turmush tarzi bilan bevosita bog'liq emas. Shuning uchun ham o'zbek tili bu so'zlarning o'zbekcha ifodasiga hech

qanday ehtiyoj sezmaydi. Ayni bir xalqning ijtimoiy hayoti va turmush tarzini, madaniy saviyasini o'rganishda shu xalq tilidagi lug'aviy birliklarni, mazkur tilning lug'at qatlamini chuqur o'rganish katta ahamiyatga ega. Shu ma'noda u yoki bu tarzda munosabat turini, shu jumladan, darajalanish (graduonimik) munosabatlarning ham tildagi mustaqil lug'aviy birliklar, ya'ni leksemalar yoki frazemalar yordamida ifodalanishini o'rganish o'ziga xos amaliy va nazariy ahamiyatga ega.

"Graduonimiya" "gradatsiya", "graduallik" tushunchalarini fanga fransuz tabiatshunosi J.B.Lamark olib kirdi. Bu atamalar lotin tilidagi *gradation* (asta sekin ortib borish) ma'nosini bildirib, u gradus – bosqich, daraja so'zidan kelib chiqqan. J.B.Lamarkning evolyutsion nazariyasiga ko'ra gradatsiya jonli mavjudodlarning filogogenez jarayonida bosqichma-bosqich mukammallashib borishini bildiradi. Graduallik tushunchasi tilshunoslikka ilk bor N.S.Trubetskoy tomonidan fonologiyada oppozitiv munosabatlarni o'rganish bilan bog'liq tarzda kiritildi, bunda ma'lum bir belgining har xil darajada namoyon bo'lish xususiyatlari nazarda tutildi. Ta'kidlash kerakki, ko'plab tilshunoslar graduallikni semantik kategoriya sifatida o'rganishgan. Bundan tashqari, graduallik mantiqiy-semantik, leksik-semantik va leksik-sintaktik kategoriya sifatida tadqiq etilgan, shuningdek, kuchaytirishning kommunikativ-pragmatik kategoriyasi sifatida ham o'rganilgan[1;4].

Tilga nisbatan kognitiv yondashuv bilimlarni tizimlash jarayonlari va ularni verballashtirishni nazarda tutadi. Y.S.Kubryakovaning o'rinli ta'kidlashicha, "til dunyoni inson ongi tomonidan qanday ko'rilgan va tushunilganligini, tafakkur tomonidan qanday talqin etilib, toifalashtirilganini aniqlaydi va obyektlarga bo'lish orqali aks ettiradi. Har bir lisoniy birlik va, ayniqsa, har bir lisoniy kategoriya kognitiv jarayonlarning namoyishi va ularning natijalari sifatida ko'rib chiqilishi mumkin" [5,19]. Bu jarayonlarda inson va unga xos bo'lgan atrof dunyo haqidagi axborotni gradatsiya (darajalash) hodisasi orqali ochib berish dolzarb hisoblanadi. Shuni quvonarliki, bugungi kunda qiyosiy aspektda graduonimiya (darajalanish)ga doir tadqiqotlar ommalashib bormoqda.

Darajalanish hodisasiga E.Sepir birinchilardan bo'lib e'tibor qaratib uni ma'lum bir shkalaga asoslanib, tartiblanish sifatida tasniflaydi va u mazkur hodisani tadqiq qilishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. E.Sepir darajalanishning mantiqiy, psixologik va lingvistik jihatlarini, shuningdek gradatsiyaning belgilarga izoh berilishi miqyosini ajratdi (eksplitsit, implitsit va potentsial darajalanish); gradatsiyaning kontseptual apparatini belgiladi; o'lchov bilan darajalanishning va hissiy baho bilan kvantifikatsiyaning aloqasini ko'rib chiqdi; gradatsiyaga oid mulohazalar turlarini ajratdi. Modomiki gradatsiya – boshqa lisoniy birliklar bilan aloqani aniqlovchi ko'p bosqichli hodisa ekan, uning alohida jihatlarini tilshunoslikning boshqa masalalarini ko'rib chiqishda tadqiq qilinishi muhim.

Graduallik, ayniqsa, leksik-semantik tizimlar miqyosidagi miqdoriy tushunchalarni tadqiq qilish jarayonida aniqlanadi. S.A.Shvachko monografik tadqiqotida miqdorni ifodalashning turli gradatsiyadagi vositalari ingliz, rus va ukrain tillarini qiyoslash orqali ko'rib chiqiladi [9,19].

Mazkur tadqiqotlar natijasida mazmuniy jihatdan miqdor tushunchasi bilan gradatsiyaning o'zaro aloqasi aniqlandi: miqdor ma'nosiga ega bo'lgan leksikaning ma'lum bir qismi darajalanish imkoniyati bilan xarakterlanadi: masalan quvvat, to'plam va miqdor o'lchovlari kabi mikrotizimlardan tashkil topgan so'zlar, katta o'lchovlar qatoridagi iboralar guruhi. Bundan tashqari, keltirilgan ishlarda miqdor tushunchasi asos va periferiya qismlariga ega ierarxik tashkil qilingan funksional-semantik maydon sifatida ko'rib chiqiladi [13].

Gradatsiyaning o'ziga xos bo'lgan turli jihatlarini rus, ingliz, nemis, fransuz tillaridagi materiallarda keltirilgan intensivlik tushunchasiga bag'ishlangan tadqiqotlarda ham kuzatish mumkin. Unda turli til gradatsiya birliklarini intensivifikatsiyalash vositasi, leksik kuchaytirgichlarni kelib chiqish manbalari, turli nutq birliklari bilan intensivifikatorlarni uyg'unlashtirish xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Bunda xorij tadqiqotlaridan D.Bolindjer ishini qayd etish mumkin bo'lib, unda intensivifikatorlarning semantik xususiyatlari va ular bilan birgalikdagi leksik birliklar o'rganiladi [2].

Shuningdek, E.M. Volfning "Функциональная семантика оценки (Москва: Наука, 1985. 229 с.)", N.D. Arutyunovning "Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт. (Москва: Наука, 1988. 341 с.)" kitoblarida, K.T. Realdinovning "Категория интенсивности признака в современном немецком языке" nomli nomzodlik ishida leksik darajalanish hodisasi bilvosita o'rganilgan bo'lsa, E.I. Sheygalning "Традиция в лексической семантике" (Куйбышев, 1990. 96 с.), S.M. Kolesnikovaning "Семантика градуальности и способы ее выражения в современном русском языке" (Москва: Наука, 1998. – 178 с.) kitoblarida bevosita tadqiq etildi.

Biz imkon darajasida kuzatgan xorijiy adabiyotlarda darajalanish hodisasi, asosan, ikki yo'nalishda o'rganilgan:

- 1) daraja (belgi)ning me'yordan oshib borishi hamda
- 2) daraja (belgi)ning me'yordan kamayib borishi.

Ba'zi ishlarda graduallik semantik va struktural jihatdan ko'rib chiqilgan va gradatsiyaning semantikasi, turli usul va vositalar bilan darajalanishning yuzaga kelishi kabilar ham tadqiq etilgan.

E.S. Kubryakovaning "Язык и знание" (Москва: Наука, 2004) tadqiqotida graduallikni o'rganishga har ikki yondashuvning uyg'unlikda qo'llanilishi samarali natijalarni berishi ta'kidlangan. Zero, gradual belgilar tildan tashqari faoliyatda ham hamisha mavjud bo'ladi. Tashqi olamning predmet va hodisalari o'zgarish xususiyatiga ega belgilar bilan xarakterlanadi va turli darajalarda namoyon bo'ladi. Ma'lum predmet boshqasidan o'lchami, balandligi, kengligi boshqa bir predmet yana bir qator belgilarga ko'ra farqlanadi. Turli tabiiy hodisalar belgilarning o'zgarish jarayonini aks ettiradi, masalan, yil fasllarining almashishi, ob-havoning o'zgarishi, insonning ulg'ayishi va h. Turli jarayonlarda darajalanishning sodir bo'lish tezligi oshishi yoki kamayishi bilan aloqador ekanligi ma'lum.

Bitta umumiy belgining graduallik bilan birlashgan obyektiv reallikdagi bunday hodisalar ro'yxati cheksiz bo'lib, cheksizlik, ko'p o'lchovlilik, dinamiklik o'ziga xos bo'lgan faoliyatga tegishli ekanligi bilan e'tiborli. Muayyan tarzda inson ongli subyekt sifatida atrof-muhitdan ajraladi va gradual belgi-hodisalami qabul qiladi. O'zbek tili lug'at boyligini muayyan lug'aviy ma'no guruhlariga ajratish so'zlararo ma'noviy munosabatlarni o'rganish bilan chambarchas bog'liq. XX asr 80-yillarining o'rtalarigacha o'zbek tilshunosligida so'zlararo ma'noviy munosabatlar tushunchasi ostida, asosan, sinonimik, omonimik va antonimik munosabatlab tushunilar edi.

O'zbek tilshunosligi Rohatoy Safarovaning ishi bilan so'zlararo ma'noviy munosabatlarning turlari mazkur ma'noviy munosabatlar bilan cheklanmasligi masalasi ko'tarildi va yangi zamonaviy munosabatlarning bir ko'rinishi gipo-geperonimik, ya'ni tur-jins ma'noviy munosabatlari hayvonot nomlari misolida tahlil etildi.

R.Safarova va E.Begmatov, H.Ne'matov, R.Rasulov "Leksik mikrosistema va uning tadqiq metodikasi" mualliflari lug'aviy guruh ma'nolarida sistemaviy munosabatlar sinonimik, antonimik, polisemantik, giponomik munosabatlar bilan cheklanmasligini ta'kidlab, so'zlararo bunday munosabatlar xilma-xil yangi ko'rinishlarga ega bo'la olishini ko'rsatish maqsadida graduonimik (darajalanish), partonimik (butun-bo'lak), funksionimik (vazifadoshlik) munosabatlarini eslatib o'tishgan edi. Zero, lug'aviy birliklarning o'zaro ma'noviy munosabatlarga ko'ra ma'lum bir darajalanish qatorlarini hosil etishi tilshunoslikda qadim qadimdan ma'lum.

Belgi xususiyatining turli darajalarini ifodalashga ko'ra so'zlarni ma'lum qatorlarga tizish tilshunoslik fani uchun tamoman yangilik emas, zero, ularni tasodifiyliklar sifatida qayd etish tilshunoslikda uzoq tarixga ega. Belgini darajalab keluvchi so'zlarni o'zaro birlashtirish tilshunoslikda uzoq tarixga ega. Jumladan, o'zbek tilshunosligida ma'nosi darajalanuvchi so'zlar qatorini alohida hodisa sifatida ajratishni biz Alisher Navoiyning "Muhokama-tul-lug'atayn" asarida uchratamiz. Bu asarda Navoiy "yig'i" holatini ifodalovchi quyidagi darajalanish qatorini ajratganini yana bir bor eslatib o'tamiz.

Yig'lamoq: *ingramoq~singramoq~yig'lamsinmoq~siqtamoq~yig'lamoq~ siqtamoq~ o'kurmak~hoy-hoy yig'lamoq*

Buyuk mutafakkir bu so'zlarning barchasini bir umumiy ma'no – iztirob chekib, uni ifodalash ma'nosi atrofiga birlashishini va "inkirmak" (ya'ni iztirob chekib juda past ovoz chiqarib, ich-ichidan yig'lamoq)dan "hoy-hoy yig'lamoq" (baland ovoz bilan oshkora va uzoq yig'lamoq) so'ziga tomon belgi darajasining o'sib borishini ta'kidlaydi. Buni yorqin misollar bilan dalillaydi:

1) *Charx zulmidaki, bo'g'zimni qirib yig'larmen,*

Igurur charx kibi inchkirib yig'larmen. (Mazmuni: Charx (taqdir) zulmidan bo'g'zimni qirib yig'layman, ingrayotgan charxga o'xshab ich-ichimdan yig'layman.)

2) *Istasam davr ahlidin ishqingni pinhon aylamak,*

Kechalar gah ingramakdur odatim, gah singramak. (Mazmuni: Odamlardan ishqimni yashirishni istayman, shuning uchun odatim goh ingramoq, goh singramoq.)

3) *Zohid ishqin desaki, qilg'ay fosh*

Yig'lamsinuru ko'ziga kelmas yosh. (Mazmuni: Zohid o'z ishqini izhor qilganda yig'lamsiraydi-yu, lekin ko'ziga yosh kelmaydi. Demakki, uning sevgisi chin emas.)

4) *Ul oyki kula-kula girog'latti meni,*

Yig'latti demayki, siqtatti meni. (Mazmuni: Ul oy yuzli kulgisi bilan meni asir etdi, meni nafaqat ko'z yosh to'ktirdi, balki yurakdan yig'latdi.)

5) *Ishim tog' uzra har yon ashk selobini surmakdur*

Firoq oshibudin har dam budud yanglig' o'kirmakdur. (Mazmuni: Uning ishqida mening ishim ko'zdan qon yoshlarni oquzmoq, ayriliq azobida har dam budud kabi o'kirib yig'lamoqdir.)

6) *Navoiy, ul gul uchun hoy-hoy yig'lama ko'p,*

Ki ha deguncha ne gulbun, ne g'uncha, ne gul bor (Mazmuni: Ey, Navoiy bu bevafo gul uchun ko'p hoy-hoy yig'lama, chunki ha deguncha na gulbuta, na g'uncha, na gul qoladi) [6,13].

Bu so'zlar orasidagi ma'noviy farqni izohlash maqsadida keltirilgan misollar o'zining mukammalligi bilan diqqatga sazovor. Keltirilgan misollardan shu narsa yaqqol ko'rinib turibdiki, "o'kirmak", "hoy-hoy yig'lamoq" so'zlari yig'I holatining kuchli darajasini ko'rsatmoqda.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, Alisher Navoiy ongli ravishda yetti guruh so'zlarni ma'no darajalanish asosida birlashishini ko'rsatadi. Bu buyuk so'z san'atkorining faqat "Muhokama-tul- lug'atayn" asarida maxsus ajratgan so'zlardan birgina misol edi. Agar o'zbek she'riyati sultoni g'azallarini ma'noviy darajalanish nuqtayi nazaridan o'rganishni oldimizga maqsad qilib qo'ysak, bunday so'zlar qatori bir necha yuzga yetishi va shoir ongli ravishda darajalanuvchi so'zlarni ishlatib, mubolag'a sohasida maxsus badiiy san'at yaratganining guvohi bo'lishimiz aniq. Demak, Alisher Navoiy asarlarida darajalanuvchi so'zlardan foydalanish san'ati mavzu jihatidan qator tadqiqotlar manbayi bo'la oladi.

So'zlar orasidagi ma'noviy darajalanishni boshqa tilshunoslar ham qayd etishgan. Bu tilshunoslar fikrlari M.Fayzullayevning ishida ancha mufassal tahlil etilgan. Tilshunos olim M. Fayzullayev ishida so'zlarda ma'no darajalanish xususida J.Lokk, L.N Tolstoy, E. Sepir, D. Bolinjer, R. Safarova va boshqa tadqiqotchilarning lug'aviy ma'noda darajalanish xususidagi mulohazalari atroflicha tahlilga tortilgan. So'zlarda semantik darajalanish alohida muammo ekanligi R.Jabborova, S.G'iyosov va M.Narziyeva ishlarida ko'rilgan.

Graduonimik qatordagi so'zlar qandaydir bir sema bilangina emas, balki bir-biriga aloqador bo'lgan bir necha semalar va uslubiy bo'yoqlar bilan ham darajalana oladi. Graduonimik qatorda belgini darajalanib, oshib, kamayib borishida miqdoriy o'zgarishlarning sifat o'zgarishlariga o'tish qonuniyati takror-takror voqelanaveradi. Graduonimik zanjirning ikki chekka uchi ma'lum bir belgining tasdig'i bilan birga bir-birini inkor etishida esa, inkorni inkor qonuni namoyon bo'ladi.

Graduallik termini dastlab graduonomiya sifatida fanga kirib keldi. Bu termin fonologik "gradual oppozitsiya" atamasidagi "gradus" grekcha daraja va sinonimiya, omonimiya, antonomiya so'zlaridagi – *nomiya* tarkibiy qismi asosida hosil qilindi.

Keyinchalik graduonimiya (darajalanish) atamasi M. Narziyeva, S.Saidov, G.Ne'matova, O.Bozorov ishlarida keng qo'llanildi. Hamid Ne'matov, Ravshanxo'ja Rasulov, Malika Narziyevalarning o'quv qo'llanmalarida darajalanish, darajalanish qatorlari (graduonimiya, gradual oppozitsiya) kabi tilshunoslik atamalarini ishlatish bilan bu tushuncha o'zbek tilshunosligida mustahkam o'rnatilib oldi, deyish mumkin.

Bugungi tilshunoslik fanimizda graduonimiya va uning o'zbekcha ma'nodoshi darajalanish atamalari so'zlararo ma'noviy munosabatlarning bir ko'rinishini atovchi ilmiy tushuncha sifatida ommalashmoqda.

O'zbek tilida darajalanish graduonimik qatorlar haqida Shoiri Orifjonova ham bevosita ish olib borgan, u o'zining "O'zbek tilida lug'aviy graduonimiya" kitobida bu mavzuga keng to'xtaladi, graduonimiyaning sinonim, anonimlar bilan aloqasini, shuningdek, gradual oppozitsiyalar haqida ham to'xtaladi. U graduonimik qatorlar haqida gapirar ekan shunday deydi: "Graduonimik qatorlar hozirgi o'zbek tilida umuman ajratilmagan va bu bob o'zbek tilshunosligida ilk tajriba sanalishi mumkin. Shuning uchun oldindan aytib qo'ymoqchimizki, birinchidan, biz hech qachon o'zbek tilidagi graduonimik qatorlarning to'liq ro'yxatini berish niyatida emasmiz va bu ishni nafaqat, bir, balki on- o'n besh kishi amalga oshirishi ham qiyin. Shunga qaramay, bu sohada ayrim juz'iy masalalarni ochishga harakat qilamiz.

Graduonimik qatorlarning ikki xususiyatiga tayangan holda ular ikki turga ajratadi: 1) so'z turkumlarida graduonimik qatorlar va 2) umumlashtiruvchi semaga ega graduonimik qatorlar.

Sh.Orifjonova o'z nomzodlik desertatsiyasida darajalanish qatorlari, umuman, darajalanish haqida aniq ma'lumotlar bergan. U birinchi turda so'z turkumlarining har birini graduonimik qatorlarga qo'yib o'z mulohazalarini aniq faktlar asosida bayon qilgan. Bir so'z turkumining graduonimik qatorini tuzishda u graduonimik qatorlarda sinonim antonim qatorlarini ham ko'rsatib misollar bilan asoslab bergan.

XULOSA. Sh.Orifjonova yoqlagan nomzodlik dissertatsiyasini boshqa tilshunos olimlarimiz to'xtalib shu mavzu haqida xabar berib o'tgan ma'lumotlarning umumlashmasi deyishimiz mumkin. A. Hojiyev ham graduonimik qatorlarga to'xtalib o'zining qimmatli mulohazalarini bayon qilgan. Olmoshlarning graduonimik qatori haqida U. Tursunov, J.Muxtorov, Sh. Rahmatullayevlar mulohazalari ham mavjud. Ular: "Ko'rsatish olmoshlari so'zlovchi bilan ko'rsatilgan predmet orasidagi masofaning uzoq-yaqinligiga, voqea sodir bo'lgan vaqtga qarab qo'llanadi. Bu olmoshi so'zlovchiga ancha ayon bo'lgan, yaqindagina eslatilgan predmet, voqeani yoki, umuman, predmetlarni ta'kidlab ko'rsatish uchun ishlatiladi", deb yozadilar "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitoblarida [8,118]. Qadimdan to hozirgacha tilshunos olimlarimiz yaratgan ishlar ayni bugun uchun juda qimmatli manba bo'lib kelmoqda. Biz ularni o'qib graduonimik qatorlarning hali o'rganilishi zarur bo'lgan juda ko'p jihatlari borligi va ular hamon o'z yechimini kutayotganligiga yana bir bora amin bo'lamiz.

Xuddi shuningdek frazeologik birliklar graduonimiyasi ham ochilmagan qo'riq darajasidagi mavzu deyishga haqlimiz.

ADABIYOTLAR:

1. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека / Н.Д. Арутюнова. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 896 с.
2. Bolinger D. Degree words. – The Hague – Paris: Mouton, 1972. – 324 p.
3. Джумабаева Ж. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик ҳамда стилистик градуонимия: Филол.фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – 25 б.
4. Федорова И.Р. Модальность возможности в современном русском языке. учеб. пособие. – Калининград: Калинингр. ун-т., 2000. – 85 с.
5. Кубрякова Е.С. Язык и знание (на пути получения знаний о языке: части речи с когнитивной точки зрения, роль языка в познании мира). – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.
6. Орифжонов Ш. Ўзбек тилида лугавий градуонимия: Филол.фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – 23 б.
7. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raipova L., Qurbanova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o'zbek tili. Darslik. – Buxoro: Durdona, 2021. – 555 b.
8. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – 400 б.
9. Yuldasheva D.N., Asadova Sh.A. O'zbek tilida frazeologik graduonimiya. Monografiya. – Germaniya: Globe Edit international Publishing Group. – 2021. – 85 p.
10. Yuldasheva D.N., Asadova Sh.A. Graduonimiya hodisasi va uning tadqiqi xususida// Ayniy vorislari, 2024. – Buxoro, 2-son (5-chiqish). – 106-110-b.
11. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдли. 1-жилд. А-Д. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006. – 680 б.
12. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдли. 5-жилд. Ц-Х. – Тошкент: ЎзМЭ, 2008. – 592 б.
13. Швачко С.А. Языковые средства выражения количества в современном английском, русском и украинском языках. – Киев: Вища школа, 1981. – 143 с.